



«Humans»ning Sodiqlik dasturi doirasida “Aloqa xizmatlarini to‘lashda” rag‘batlantirish

Rag‘batlantirish tavsifi

Rag‘batlantirish Ishtirokchiga Ishtirokchining Keshbek hisobidagi mablag‘ bilan aloqa Xizmatlarini to‘liq yoki qisman to‘lash imkonini beradi.

O‘zbekiston hududida Humans Aloqa xizmatlari uchun tariflarining tavsifi Humans saytida keltirilgan.

Rag‘batlantirish berilishining shartlari

Mobil ilovada “Aloqa xizmatlarini to‘lashda” rag‘batlantirishni buyurtma qilish imkoniga ega bo‘lish uchun, interfeysdagi ko‘rsatmalarga amal qilgan holda Aloqa xizmatlarini to‘lash uchun Keshbek hisobdan pul sarflashni ruxsat etish uchun kerakli harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Bunday holatda aloqa Xizmatlarini to‘lash paytida birinchi navbatda Ishtirokchining Keshbek-hisobidagi mablag‘i sarflanadi.

Quyidagilar sababli Ishtirokchining Shaxsiy hisobidan kerakli miqdorda mablag‘ yechilishi amalga oshirilganida rag‘batlantirish buyurtmasi avtomatik ravishda amalga oshiriladi: Tarif paketining ulanishi yoki avtomatik ravishda uzaytirilishi, cheksiz ilovalarning Opsiylari, “Cheksiz SMS” Opsiylasi, Tarif paketini kengaytirish Opsiylasi (“100 daqiqa”, “300 daqiqa”, “500 daqiqa”, “1 gigabayt”, “2 gigabayt”, “4 gigabayt”), xizmatlarni to‘lashda: Raqamni almashtirish, Alohida toifadagi raqamni tanlash, Alohida toifadagi raqamni taqdim etish (keyingi o‘rinda – Aloqa xizmatlari).

Bunda ishtirokchining Keshbek-hisobidan Aloqa xizmatlarning to‘liq narxi yechiladi, Shaxsiy hisobdan esa mablag‘ yechilmaydi. Agar Ishtirokchining Keshbek-hisobida Aloqa xizmatlarning to‘liq narxi yechilishi uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, Ishtirokchining Keshbek-hisobidan barcha mablag‘ yechiladi, Aloqa xizmatlarining to‘liq narxi yechilishi uchun to‘lovning qolgan qismi Ishtirokchining Shaxsiy hisobidan yechiladi.

Rag‘batlantirish ko‘p marta buyurtma qilinishi mumkin.

Rag‘batlantirishni 01.09.2021-yildan 31.12.2021-yilgacha buyurtma qilish mumkin.